

08.00.01
08.00.02
08.00.03
08.00.04
08.00.05
08.00.06
08.00.07
08.00.08
08.00.09
08.00.10
08.00.11
08.00.12
08.00.13
08.00.14
08.00.15
08.00.16
08.00.17

JURNAL

ISSN 3030-3605

https://jbmb.uz/

BANK BOZOR BIZNES

GUVOHNOMA №224008

2024 №7 dekabr

Bosh muharrir
Pardayev Olim Mamayunusovich

Elektron nashr.

Nashrga tayyorlovchi
Hamidov Mubin Habibjonovich

Mas‘‘ul kotib
Bekmurodov Abbos Amiriddinovich

Tahririyat kengashi a‘‘zolari:

Pulatov Muxiddin Egamberdiyevich	SamISI, rektori professori, i.f.d.
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich	SamISI, professor, i.f.d.
Sharipov To'lqin Saidaxmedovich	SamISI, O'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent, i.f.n.
Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich	SamISI, Ma‘‘naviy ishlar bo’yicha prorektori, i.f.f.d.
Zaynalov Jaxongir Rasulovich	SamISI, professor, i.f.d.
Urazov Komil Baxromovich	SamISI, professor, i.f.d.
Bektemirov Abdumalik	SamISI, professor, i.f.d.
Shavqiyev Erkin	SamISI, professor v.b. i.f.d.
Tashnazarov Samiddin Nizamovich	SamISI, professor, i.f.d.
Gaybullayev Raxim Murodovich	TDIU Samarqand filial professori.i.f.d.
Davronov Shuxrat Zuxurovich	i.f.d. dotsent.
Rustamov Maqsud Suvonqulovich	TDIU professori.i.f.d.
Mamatov Baxodir Safaraliyevich	TDIU professori, i.f.d.
Mattiyev Ilxom Begmatdo’lobovich	SamISI professor, p.f.d.
Niyozov Zuxur Davronovich	SamISI, dotsent. i.f.n.
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna	SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.
Xoliqulov Anvar Nematovich	SamISI professori, i.f.n.
Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich	TDIU dotsent, i.f.n.
Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich	SamISI, dotsent. t.f.n.
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	SamISI, dotsent,.i.f.f.d.
Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abiyev Jahongir Ne’matovich	SamISI, dotsent. i.f.f.d.
Ernazarov Alisher Ergashevich	ISFT instituti Samarqand kampusi dotsent, p.f.f.d.
Artikov Zokir Sayfiddinovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Normurodov Umid Normurod o'g'li	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.
Juliboy O’g’li Oybek	SamISI, i.f.f.d.
Tagayev Salim |Sobirovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Axrororv Zarif Oripovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Malikova Dilrabo Muminovna	SamISI, i.f.f.d.
Ochilova Xilola Nematovna	SamISI i.f.f.d.
Ruziboyeva Nargiza Xakimovna	SamISI, dotsenti. i.f.f.d.
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	SamISI, kata o’qituvchisi. i.f.f.d.
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	SamDU, dotsenti. i.f.f.d.
Beknazarov Farxod Abduvaxidovich	SamISI, “Turizm” kafedrasi o'qituvchisi, i.f.f.d.
Karimov Anvar Aktamovich	SamISI, “Turizm” kafedrasi o'qituvchisi, i.f.f.d.
Rustamov Jamshed Ergashevich	SamISI dotsent v.b., p.f.f.d.

M U N D A R I J A

Xolmirzayeva G.A. Nabiyeva U.V.	**Real iqtisodiyot korxonalari samaradorligini baholash uslublarini takomillashtirish yo'llari**	5-9
Xolmirzayeva G.A. Toshboyeva D.I.	**Iqtisodiyotning real sektor korxonalarini qo'llab quvvatlash va tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari**	9-14
Рустамов Дж.Э.	**Эволюция международной и региональной академической мобильности: Тенденции и перспективы в контексте будущего высшего образования**	14-23
Bekmurodov A.A. Qurbonov T.N. Shodiyev F.Q.	**Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va uni rivojlantirish yo'llari**	24-34
Xolmirzayeva G.A.	**Xizmat ko'rsatish sohasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va real iqtisodiyot korxonalarini qo'llab quvvatlash yo'nalishlari**	34-38
Рустамов Дж.Э.	**Роль и влияние современных инновационных технологий на повышение эффективности преподавания физической культуры в высшем образовании**	38-44
Xolmirzayeva G.A. Olimova Sevinch	**Xizmat ko'rsatish sohasida zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish jaroyonida banklarning ahamiyatini oshirish**	45-48
Xolmirzayeva G.A. Saloxitdinova M.B.	**Xizmat ko'rsatish sohasida real iqtisodiyot korxonalari samaradorligini tahlil etish va baholash uslubiyatlari.**	49-53
Рустамов Дж.Э.	**Evolution of International and Regional Academic Mobility: Trends and Prospects in the Context of the Future of Higher Education**	53-61
Murodov A.M.	**Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish shart-sharoitlari, tamoyillari va baholash bosqichlari.**	61-65
Bekmurodov A.A. Qarshiyev A.S.	**Texnologiyalar shaklidagi innovatsiyalar va ularning samaradorligi**	65-74
Ismoilov S.N.	**Tijorat banklarida operatsion risklarini boshqarish-ni takomillashtirish yo'llari**	75-79
Ashurova O.Yu	**Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida**	79-85

Muminov A	**risklarni sug'urtalash**	
Ashurova O.Yu Xusanov S	**Yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartiblarini takomillashtirish**	85-93
Bekmurodov A.A.	**Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik va o'rta biznesning o'rni va ahamiyati.**	94-97

REAL IQTISODIYOT KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
Nabiyeva Umeda Valizoda
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalish 3 bosqish talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqola real iqtisodiyot korxonalari samaradorligini baholash yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Real iqtisodiyot, axborot komunikatsiya, samaradorlik, baholash, korxonalar,raqamli biznes.

Abstract: This article explores ways to assess the efficiency of real economy enterprises.

Key words: Real economy, information and communication, efficiency, assessment, enterprises, digital business.

Kirish. Real iqtisodiyot korxonalari faoliyati bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga chambarchas bog'lanib jadal suratlar bilan o'smoqda. Biz texnologik inqilob davrida yashayapmiz, bu bizning yashash, ishlash va bir-birimiz bilan o'zaro munosabatimizni tubdan o'zgartiradi. Darhaqiqat, bugun ko'z o'ngimizda to'rtinchi sanoat inqilobi ro'y bermoqda, ya'ni inson ehtiyojlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda kiberfizik tizimlarning keng miqyosda joriy etilishining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu esa, mutaxassislar bashorat qilganidek, hayotimiz rivojiga, ko'p tarmoqli, turli hajmdagi korxonalar faoliyatiga, butun iqtisodiyotga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada ushbu inqilob iqtisodiyotning real sektoriga va umuman jamiyatga qanday ta'sir qiladi degan savol vujudga kelmoqda.

Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar - ya'ni yaqin kelajak texnologiyalarining tarqalishi taraqqiyotning boshlanishini tavsiflovchi omilga aylandi. Biz axborot texnologiyalarining inson hayotining barcha jabhalariga faol kirib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ko'z o'ngimizda axborot jamiyati yaratilib, raqamli iqtisodiyotga

bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Hozirgacha raqamli iqtisodiyot tushunchasining yagona talqini mavjud emas. “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasining xilma-xil talqin qilinishi raqamli iqtisodiyotning turli jihatlarini aks ettirishi bilan bog‘liq. Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash bozor iqtisodiyoti sub’ektlari o‘rtasida amalga oshirilayotgan munosabatlarning ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida raqamli iqtisodiyotning ajralmas xarakteristikasini shakllantirishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyotning turli jabhalarini raqamlashtirish - ishlab chiqarish omillariga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalar va unga tegishli yangi biznes modellar ta’sirida nafaqat alohida tarmoqlar, balki iqtisodiyotning butun tuzilmasi va tarmoqlararo o‘zaro hamkorlikni tashkil etish jarayonlari ham o‘zgarmoqda. Bugungi kunda, mamlakatimizda raqamlashtirishni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va statistika sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ham real sektor korxonalari samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib turibdi. Ushbu sharoitning o‘ziga hos xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotni 2 ta asosiy tamoyillar asosida tasavvur etish mumkin, ya’ni – samaradorlikni oshirish va «Raqamli korxonalar»ni yaratish. Samaradorlikni oshirish. Biznesda yoxud tadbirkorlikda ma’lumotlarni raqamlashtirish harajatlarini kamaytiradi, foydani oshiradi va iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini ko‘tarilishiga olib keladi. Kompaniyalar faoliyati raqamlashtirilgandan so‘ng, ular o‘z texnologiyalarini iqtisodiyotning turli sohalarida ilgari so‘rishga qodir ekanliklarini anglaydilar. Bu, o‘z navbatida, kamroq harakat talab qiladi, chunki «didjitalizatsiya» to‘siqlarni engib o‘tishga va iqtisodiyotning yangi segmentiga kirishga yordam beradi. Ma’lumotlarning raqamlashtirilishi bilan bozor iqtisodiyoti ham sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Hozirgi kunda ko‘plab kichik kompaniyalar eng kam harajat bilan etakchilar qatoriga kirish

imkoniga ega. “Raqamli korxonalar”. Bunday tashkilotlar bulutli texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan va masofaviy faoliyat olib boruvchi ishchi guruhlardan tashkil topgan.

Bugunda tadbirkorlar «Raqamli biznes»da faoliyat yurita olmas ekan bunday iqtisodiyotda samarali natijalarga erishish juda qiyin bo‘ladi. Shuning uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda etakchi kompaniyalar tobora bulutli xizmatlarga murojaat qilmoqdalar. Bulutli xizmatlarni ko‘rsatuvchi kompaniyalar joylashgan mamlakatlarning iqtisodiyoti ham rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda raqamlashtirishni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, geologiya va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

Samarqand viloyati bo'yicha iste`mol mollari ishlab chiqarish tarkibi

(foizda)

	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	*) yanvar-dekabr 2022 yil	*) yanvar-mart 2023 yil
Jami	**118,5**	**105,2**	**104,4**	**110,7**	**116,0**	**108,2**	**108,9**	**102,1**	**111,6**	**101,6**	**119,9**	**112,9**	**119,4**	**109,3**
shu jumladan:														
oziq-ovqat mahsulotlari	107,4	106,2	138,1	103,6	187,7	118,1	143,2	116,3	106,3	113,7	119,2	120,1	121,9	109,2
vino-aroq mahsulotlari va pivo	103,2	144,1	101,8	140,6	61,8	116,1	133,3	112,4	85,3	179,4	96,0	76,2	118,1	100,2
nooziq-ovqat mahsulotlari	111,7	130,5	112,3	127,4	110,2	108,1	125,1	116,8	155,2	109,1	120,9	104,1	118,0	109,5

[1] dastlabki ma’lumot

O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi bosqichiga, ya’ni raqamli hukumatga o‘tish va raqamli jamiyat, mamlakatning barqaror ijtimoiyiqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ta’minlash, fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash, insonlarning ehtiyojlari va erkin rivojlanishini qondirish uchun keng imkoniyatlar yaratishda raqamlashtirishning o‘rni beqiyosdir. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari tyg‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilindi.

Xulosa. Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha xalq ta’limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini qabul qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri davlat va iqtisodiyotni boshqarishni raqamli o‘zgartirish, ularning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash uchun mos raqamli muhitni yaratish va rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarning “faollashtiruvchisi” bo‘lgan ikkita asosiy jarayon - bu raqamlashtirish ta’siri ostida biznes strategiyasi va biznes jarayonlarida keng ko‘lamli o‘zgarishlarga sabab bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida” gi qonuni. – T.: 1998.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. –T.: 2000.

3.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil 30 dekabr. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

4.O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 10 may. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz

5.O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 24 iyul. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

6. 26.10.2016 da qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-4853 sonli Prezident farmoni.

7.30.10.2018 da qabul qilingan “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5564 son Farmon.

8. 13.02.2020 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 75-son Vazirlar Mahkamasining qarori

IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR KORXONALARINI QO’LLAB QUVVATLASH VA TANNARXNI PASAYTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
Toshboyeva Diyora Isobek qizi
Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalish 3 bosqish talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotning real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va ular faoliyatida tannarxni pasaytirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar tahlil qilingan. Xususan, moliyaviy, soliq, innovatsion va infratuzilma ko‘magining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, energiya tejamkorlik, raqamlashtirish va kooperatsiya asosidagi yondashuvlar yoritilgan. Maqolada real sektorning raqobatbardoshligini oshirish uchun tizimli va kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: real sektor, qo‘llab-quvvatlash, tannarx, iqtisodiy islohotlar, sanoat, innovatsiya, infratuzilma, raqamlashtirish, klaster.

Abstract: This article highlights the main directions for reducing costs in real sector enterprises and the measures taken to support them.

Key words: Enterprises, small businesses, entrepreneurship, real sector, production.

Kirish .Ma’lumki real sektor korxonalari milliy iqtisodiyotningmuhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali faoliyat yuritishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznesning rivojlanishi ko‘p jihatdan davlatning mazkur sektorni tartibga solish bo‘yicha olib boradigan siyosatiga bog‘liq. Jahon tajribasi, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy etishi uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi bilan birga unga davlat tomonidan turli xil yordamlar ko‘rsatishdan dalolat beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jahon tajribasi boy va xilma - xil bo‘lsa-da, ular bir-birlaridan ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmi, usul va vositalari jihatidan farq qiladi. Mazkur tajribani o‘rganish, uning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin:

– tadbirkorlik, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarni barpo etish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini xo‘jalik sharoitlariga moslashishni ta’minlash maqsadida ularni qo‘llab-quvvatlash va imtiyozlar taqdim etish.

Bu ikkala yo‘nalish o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchi yo‘nalish barcha korxonalar uchun iqtisodiy erkinlikni kafolatlovchi, iste’molchilar manfaatlarini himoyalovchi va raqobatni rag‘batlantiruvchi qonunchilik tizimini o‘z ichiga oladi. Umumiy sharoitlarni barpo etishda davlatning soliq va byudjet siyosati muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchi yo‘nalishda davlatning kichik biznesga nisbatan olib borayotgan moliya

va kredit siyosati, davlat bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun muayyan ulushni ta’minlash mexanizmi, ularga ko‘maklashishning boshqa turlari asosiy o‘ringa ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun qulay huquqiy muhitni barpo etish rivojlangan mamlakatlarda, eng avvalo, antimonopol qonunlarni o‘z ichiga oladi. Chunonchi, AQSH nafaqat yirik trestlarning, balki antitrest qonunchiligining ham vatani hisoblanadi.

Real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari

1. **Moliyaviy ko‘mak va kredit imtiyozlari:**
   - Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga kreditlar bo‘yicha past foizli moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish.
   - Banklar orqali kafillik va sug‘urta tizimlarini kuchaytirish.
   - Investitsiya loyihalarini subsidiya asosida moliyalashtirish va ularga davlat kafolatlarini taqdim etish.
2. **Soliq va bojxona imtiyozlari:**
   - Soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqaruvchilarning likvidligini oshirish.
   - Import qilinadigan uskunalar va texnologiyalar uchun bojxona bojlari va QQS bo‘yicha imtiyozlar berish.
   - Eksportga yo‘naltirilgan korxonalarga soliq stimullari yaratish.
3. **Innovatsion qo‘llab-quvvatlash:**
   - Korxonalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va ularga grantlar ajratish.
   - Raqamli texnologiyalarni joriy etishga yordam berish.
   - Texnoparklar, klasterlar va innovatsion markazlar faoliyatini kengaytirish.
4. **Infratuzilmani rivojlantirish:**
   - Ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan energetika, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash.
   - Korxonalarga yer ajratish va bino-inshootlar qurish jarayonlarini soddalashtirish.

- Sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kuchaytirish.

Dastlabki, trestlarga qarshi qonun AQSHda 1890 yildayoq qabul qilingan bo‘lib, Sherman qonuni nomi bilan mashhur. Uning asosiy g‘oyasi savdoni monopollashtirish, savdoni cheklash bo‘yicha ochiq va sirli bitimlarni noqonuniy harakat sifatida tavsiflashdan iborat. Sherman qonunining yana bir ahamiyatli jihati shundan iborat ediki, monopoliyalar barpo etish va erkin savdoni cheklashga olib keluvchi korporatsiya va firmalarning narxni cheklovchi siyosatini, o‘zaro raqobatchi korxonalar aksiyalarini sotib olishni taqiqlar edi. Keyingi antitrest qonuni 1914 yilda qabul qilindi (Kleyton qonuni). Bu qonun o‘sha paytdagi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan bo‘lib, to‘rtta jihatni o‘zida aks ettiradi:

– narx cheklashlarining ma’lum shakllarini taqiqlash;

– o‘zaro bog‘liq shartnomalarni bekor qilish (bunday shartnomalarning mohiyati shundan iboratki, unda xaridor o‘zi uchun zarur mahsulotlar bilan birga zarur bo‘lmagan tovarlarni ham sotib olishga majbur bo‘ladi);

– natijasi raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan sharoitda aksiyalarni sotib olib o‘zaro birlashishni cheklash;

– turli direktoratdagi ayni bir shaxs vakilligida o‘zaro bog‘liq direktoratlarning birlashib ketishini taqiqlash. Trestlarga qarshi qonunlardan navbatdagisi 1936 yilda qabul qilingan va Robinson-Petmen nomi bilan atalgan. Mazkur qonun Kleyton qonuniga tuzatish shaklida qabul qilingan. Bu qonunda narx cheklashlarini amalga oshiruvchi korporatsiyalarni jinoiy javobgarlikka tortish ko‘zda tutilgan. Antitrest amaliyotida yangi jonlanish urushdan so‘ng 1950 yilda boshlandi.Shu yili kichik biznes kurashi ta’sirida Kleyton qonuniga yangi tuzatishlar kiritildi.(Seller-Kefover). Endilikda har qanday yirik korxonalarning birlashishi hukumat darajasida ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi.

Ushbu tendensiyaning susayishi XX asrning 80-yillarida yuz berdi. 1987 yilda AQSH hukumati «Kraysler» va «Ameriken motors» korporatsiyalarining birlashishiga ruxsat berdi. Buning sababi «Ameriken motors» korporatsiyasining

inqirozga yuz tutishi hisoblanadi. Biroq shu yili «Koka-kola» va «Doktor Pepper»ning birlashishi taqiqlandi. Yuqorida qayd etilgan antitrest qonunlari AQSHda bugungi kunda amal qilayotgan qonunlar uchun ham asos bo‘lib hisoblanadi va ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, antitrest qonunlari yirik va kichik biznes o‘rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keldi. Ular o‘sha vaqtda davlat tomonidan yuqori sur’atlarda tashkil topayotgan kartellar va trestlarga qarshi qabul qilingan chora-tadbirlar edi.

Ikkinchidan, garchi trestlarga qarshi qonunlar ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va monopollashuvini muayyan darajada cheklagan bo‘lsa-da, ular ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va monopollashuvining yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib keldi.

Xulosa. Chunonchi, bir tarmoqdagi korxonalarning birlashishini taqiqlovchi Sherman qonuni xolding kompaniyalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yo‘li bilan birlashishni taqiqlovchi Kleyton qonuni qabul qilingandan so‘ng yirik korxonalar o‘zlari bilan raqobatlashayotgan kompaniyalarni to‘liq sotib ola boshladilar. Barcha turdagi gorizontal va vertikal birlashishlarni taqiqlovchi Seller qonuni qabul qilingach, yirik korxonalar diversifikatsiya va konglomerat birlashuvi yo‘lini tanladilar.

Garchi iqtisodchi-olimlar o‘rtasida monopolizmga qarshi kurashish zarurati to‘g‘risida yagona fikr mavjud bo‘lmasa-da, ularning ko‘pchiligi erkin raqobatni qo‘llab-quvvatlaydilar. Shuning uchun antitrest qonunlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni monopoliyalardan himoya qiluvchi muhim vosita,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabridagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirishning strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

3. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724 sonli “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.Toshkent.20.12.2022 yil

6. Efthymiou, O. K., & Ponis, S. T. (2019). Current Status of Industry 4.0 in Material Handling Automation and In-house Logistics. International Journal of Industrial and Manufacturing Engineering, 13(10), 1370-1374.

7. Aksoy, A., Ozturk, N., & Sucky, E. (2012). A decision support system for demand forecasting in the clothing industry. International Journal of Clothing Science and Technology, 24(4), 221-236. https://doi.org/10.1108/09556221211232829

Эволюция международной и региональной академической мобильности: Тенденции и перспективы в контексте будущего высшего образования

Рустамов Дж.Э. *Самаркандского института экономики и сервиса,*
rustamovjam7@gmail.com

Аннотация: *исследование рассматривает эволюцию академической мобильности в высшем образовании, анализируя текущие тенденции и перспективы в быстро меняющемся мире. Особое внимание уделяется взаимодействию между университетами, государствами и корпорациями, а также влиянию технологических инноваций на мобильность. Обсуждаются вызовы и возможности для студентов, преподавателей и администрации вузов при увеличении академической мобильности.*

Ключевые слова: *международная мобильность, региональная мобильность, высшее образование, тенденции, перспективы, технологические инновации, университеты, студенты, преподав*

Abstract: *The study examines the evolution of academic mobility in higher education, analyzing current trends and prospects in a rapidly changing world. Special attention is paid to the interaction between universities, states and corporations, as well as the impact of technological innovations on mobility. Challenges and opportunities for students, faculty, and university administrators in increasing academic mobility are discussed.*

Key words: *international mobility, regional mobility, higher education, trends, prospects, technological innovations, universities, students, teachers, etc.*

I. Введение

Определение академической мобильности

Международная и региональная академическая мобильность становятся неотъемлемой частью современной высшей образовательной парадигмы, отражая стремление университетов и образовательных институтов к глобальной интеграции и культурному обмену. В этом контексте понятие "академическая мобильность" охватывает широкий спектр возможностей для студентов, преподавателей и исследователей участвовать в учебных, научных и профессиональных программах за пределами своей родной страны или региона.

Определение академической мобильности включает в себя не только физическое перемещение участников образовательного процесса, но и их интеллектуальное и культурное взаимодействие с новыми средами, идеями и общностями. Это может включать стажировки, обмены, семестры за рубежом, международные научные конференции, совместные исследовательские проекты и многое другое.

В данном контексте, исследование перспектив международной и региональной академической мобильности представляет собой важную задачу,

позволяющую предвидеть и планировать будущее высшего образования в условиях быстро меняющегося мирового порядка. Это обеспечивает возможность не только удовлетворения потребностей и ожиданий студентов и исследователей, но и способствует повышению качества образования, культурному разнообразию и глобальной конкурентоспособности образовательных систем.

В данной работе мы рассмотрим основные аспекты международной и региональной академической мобильности, а также выявим вызовы и возможности, с которыми она сталкивается, чтобы более глубоко понять ее роль в формировании будущего высшего образования.

II. Текущее состояние международной и региональной академической мобильности

Обзор текущих трендов и статистики

Международная и региональная академическая мобильность переживают период интенсивного развития и изменений, отражающихся в разнообразии программ, стран-участниц и участников. Последние годы характеризуются следующими ключевыми трендами и статистическими данными:

1. Увеличение числа мобильных студентов и исследователей: Согласно данным различных международных агентств и организаций, наблюдается стабильный рост числа студентов и исследователей, участвующих в международных обменах и программах мобильности. Этот тренд свидетельствует о растущем интересе к глобальным образовательным возможностям и международному сотрудничеству.

2. Диверсификация направлений и форматов обменов: В последние годы наблюдается увеличение разнообразия предлагаемых программ мобильности, включая академические обмены, стажировки, совместные исследовательские проекты, а также онлайн-курсы и виртуальные обмены. Этот тренд отражает стремление университетов и образовательных организаций к удовлетворению разнообразных потребностей и ожиданий студентов и исследователей.

3. Увеличение региональных программ и инициатив: В рамках усиления регионального сотрудничества и интеграции различных образовательных систем наблюдается рост числа региональных программ и инициатив мобильности, направленных на стимулирование обменов и сотрудничества между странами и регионами.

4. Продолжительность и формат обменов: Современные программы мобильности становятся все более гибкими и адаптивными, позволяя участникам выбирать различные форматы обмена и продолжительность участия в них, включая краткосрочные курсы, семестры за рубежом, долгосрочные программы стажировок и исследовательские проекты.

В целом, текущее состояние международной и региональной академической мобильности характеризуется ростом интереса к глобальным образовательным возможностям, разнообразием программ и форматов обменов, а также увеличением числа участников, что свидетельствует о важности этого явления для будущего высшего образования.

III. Вызовы и препятствия перед развитием академической мобильности

Финансовые ограничения и доступность ресурсов

Одним из основных вызовов перед развитием академической мобильности являются финансовые ограничения и недостаток доступных ресурсов, которые могут ограничивать возможности студентов, преподавателей и исследователей участвовать в программе мобильности. Несмотря на то, что международные обмены и стажировки могут предоставлять ценный опыт и уникальные образовательные возможности, они часто связаны с значительными финансовыми затратами, которые могут стать непреодолимым препятствием для некоторых участников.

Финансовые ограничения могут проявляться в виде следующих проблем:

1. Стоимость обучения и проживания: Высокие расходы на обучение,

проживание, питание и другие расходы за рубежом могут быть непосильными для многих студентов, особенно из семей с низким доходом.

2. Транспортные расходы: Стоимость билетов на перелеты или поездки, визы и другие связанные с перемещением расходы могут значительно увеличивать общий бюджет мобильности.

3. Языковые курсы и подготовительные программы: Некоторые студенты могут столкнуться с необходимостью прохождения языковых курсов или подготовительных программ перед участием в обмене, что также требует дополнительных финансовых ресурсов.

4. Дополнительные расходы: Возможность участия в дополнительных активностях, культурных мероприятиях или путешествиях в рамках программы мобильности также может зависеть от наличия дополнительных средств.

Эти финансовые ограничения могут препятствовать широкому доступу к академической мобильности и создавать неравенство между теми, кто может позволить себе участвовать в программе мобильности, и теми, кто не может. Решение этих проблем требует разработки более доступных и универсальных финансовых механизмов поддержки, таких как стипендии, гранты, субсидии и другие формы финансовой помощи для студентов и исследователей, стремящихся к международной академической мобильности.

IV. Технологические инновации и будущее академической мобильности

Роль виртуальной реальности и онлайн-обучения

Виртуальная реальность (VR) и онлайн-обучение играют все более значимую роль в будущем академической мобильности, обеспечивая новые возможности для доступа к образованию и межкультурному обмену, не требующие физического присутствия в другой стране или регионе. Эти технологии расширяют границы традиционной академической мобильности, предоставляя студентам и преподавателям возможность участвовать в интерактивных

образовательных программах и международных обменах, не выходя за пределы своего дома или университетского кампуса.

Роль виртуальной реальности (VR):

1. Виртуальные обмены и путешествия: С помощью VR студенты могут погружаться в виртуальные среды различных стран и культур, исследуя их историю, искусство, архитектуру и традиции. Это позволяет им получать практический опыт международного обмена, не покидая свой родной кампус.

2. Виртуальные лекции и семинары: Преподаватели могут проводить виртуальные лекции и семинары для студентов из разных стран, обеспечивая возможность обучения в международной обучающей среде прямо из дома.

Роль онлайн-обучения:

1. Международные онлайн-курсы: Онлайн-курсы и массовые открытые онлайн-курсы (MOOC) позволяют студентам из разных стран и регионов учиться вместе, обмениваться знаниями и опытом, не выходя из дома. Это способствует расширению доступа к образованию и повышению его глобальной доступности.

2. Онлайн-менторство и консультации: С помощью онлайн-платформ и инструментов студенты могут получать поддержку и консультации от преподавателей и наставников из разных уголков мира, что способствует расширению их академических и профессиональных горизонтов.

Эти технологические инновации меняют облик академической мобильности, делая ее более гибкой, доступной и удобной для широкого круга участников. Они обеспечивают новые возможности для обмена знаниями и опытом, содействуя интеграции мировых образовательных сообществ и укрепляя их связи в цифровой эпохе.

V. Стратегии развития международной и региональной академической мобильности

Продвижение устойчивых партнерств и сетей

Для успешного развития международной и региональной академической

мобильности критически важно продвигать устойчивые партнерства и сети среди университетов, научных центров, правительственных органов и других заинтересованных сторон. Эти партнерства играют ключевую роль в обеспечении доступа к образовательным ресурсам, обмене знаниями и опытом, а также в создании благоприятной среды для развития мобильности студентов, преподавателей и исследователей. Ниже приведены некоторые стратегии, которые могут способствовать продвижению устойчивых партнерств и сетей в контексте академической мобильности:

1. Стимулирование межуниверситетских соглашений и соглашений о сотрудничестве: Университеты могут активно продвигать создание и развитие партнерских отношений путем заключения соглашений о сотрудничестве с другими образовательными учреждениями. Эти соглашения могут включать обмен студентами и преподавателями, совместные исследовательские проекты, организацию совместных конференций и мероприятий.

2. Создание международных образовательных сетей: Университеты могут также вступать в состав международных образовательных сетей и ассоциаций, таких как Erasmus+, Fulbright, Ассоциация университетов Азии и Тихого океана (APRU) и др. Эти сети предоставляют участникам доступ к различным образовательным ресурсам, финансовой поддержке и возможностям для участия в международных проектах и программ мобильности.

3. Развитие мульти сторонних партнерств: Университеты могут также активно развивать мульти сторонние партнерства, включающие участие не только вузов, но и государственных и негосударственных организаций, промышленных предприятий, общественных организаций и других заинтересованных сторон. Такие партнерства могут способствовать созданию комплексных образовательных программ, ориентированных на решение актуальных социальных и экономических проблем.

Продвижение устойчивых партнерств и сетей является важным элементом

стратегии развития международной и региональной академической мобильности, поскольку они обеспечивают необходимую инфраструктуру и поддержку для успешной реализации обменов и программ мобильности. Внимание к укреплению таких партнерств способствует повышению качества образования, расширению доступа к образовательным ресурсам и улучшению международного сотрудничества в области высшего образования.

VI. Влияние академической мобильности на образование и общество

Формирование глобальных профессиональных компетенций

Международная и региональная академическая мобильность играют важную роль в формировании глобальных профессиональных компетенций, которые становятся все более востребованными в современном мире. Участие в международных обменах и программам мобильности предоставляет студентам, преподавателям и исследователям уникальную возможность развить навыки и качества, необходимые для успешной адаптации и деятельности в глобальной среде. Ниже представлены некоторые ключевые аспекты влияния академической мобильности на формирование глобальных профессиональных компетенций:

1. Межкультурная коммуникация: Участие в обменах и программам мобильности позволяет студентам и преподавателям погружаться в различные культурные среды, взаимодействовать с представителями различных культур и национальностей. Это способствует развитию межкультурной коммуникации, умению работать в многонациональных командах и эффективно решать межкультурные конфликты.

2. Гибкость и адаптивность: Переезд в другую страну или регион для учебы или работы требует от участников программ мобильности гибкости, адаптивности и умения быстро приспосабливаться к новым условиям. Эти навыки являются важными в современном мире, который характеризуется быстрыми изменениями и неопределенностью.

3. Международный опыт работы: Участие в стажировках, практике или

исследовательских проектах за рубежом дает студентам и молодым специалистам возможность получить ценный международный опыт работы, расширить свои профессиональные навыки и найти новые перспективы для карьерного роста.

4. Глобальное мышление и перспективы: Знакомство с различными образовательными системами, методами обучения и научными подходами помогает развить глобальное мышление и перспективы. Участники программ мобильности приобретают более широкий взгляд на мировые проблемы, разнообразие культур и способы решения сложных задач.

В целом, академическая мобильность способствует формированию глобальных профессиональных компетенций, которые являются ключевыми для успешной адаптации к современным вызовам и возможностям в глобальном мире. Эти компетенции не только улучшают персональное развитие участников, но и способствуют развитию общества в целом, обогащая его культурное и интеллектуальное наследие.

VII. Заключение

Подведение итогов и основных выводов

Международная и региональная академическая мобильность представляют собой неотъемлемую часть современного высшего образования, играющую ключевую роль в формировании будущего образовательного ландшафта. Взгляд в будущее высшего образования через призму академической мобильности позволяет нам понять ее значимость и влияние на студентов, преподавателей, исследователей и общество в целом.

Подведя итоги нашего рассмотрения, можно выделить несколько ключевых выводов:

1. Глобальное образование для глобального мира: Международная академическая мобильность способствует формированию глобальных профессиональных компетенций, необходимых для успешной адаптации к современным вызовам и возможностям в мировом обществе.

2. Развитие международных партнерств: Устойчивые партнерства и сети между университетами, научными центрами и другими заинтересованными сторонами являются основой успешной реализации программ мобильности и интеграции образовательных систем.

3. Технологические инновации: Роль виртуальной реальности и онлайн-обучения в академической мобильности продолжает расти, открывая новые возможности для доступа к образованию и межкультурному обмену.

4. Важность финансовой поддержки: Финансовые ограничения могут быть серьезным препятствием для мобильности студентов и преподавателей, поэтому необходимо разработать более доступные финансовые механизмы поддержки.

В целом, академическая мобильность остается одним из ключевых элементов развития высшего образования в будущем, способствуя его глобализации, качественному росту и содействуя формированию граждан мира. Этот взгляд в будущее позволяет нам лучше понять роль и значение мобильности в формировании образовательного пространства, где границы становятся все более размытыми, а возможности беспредельными.

Список литературы

1. Knight, J. (2004). Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31.

2. J.E. Rustamov International Journal of Scientific Research And Education. Volume||07||Issue||03||March-2019||Pages-8114-8118||ISSN(e):2321-7545 Website: http://jsae.in

3. European Commission/EACEA/Eurydice. (2018). The European Higher Education Area in 2018: Bologna Process Implementation Report. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION SALOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich
SamISI katta o‘qituvchisi,
Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li
SamISI, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Email: tolmasjonqurbonov06@gmail.com
Shodiyev Fazliddin Qalandar o‘g‘li
SamISI, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Email: sodievfazliddin087@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola innovatsiyalarning zamonaviy zarurligini ochib beradi va O'zbekistondagi innovatsion faoliyat salohiyatini tahlil qiladi. Unda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, ilm-fan va tadqiqot faoliyatining ahamiyati, kadrlar tayyorlash tizimi, davlat siyosati va qonunchilik, innovatsion loyihalar va investitsiyalarning roli tushuntirilgan. Maqolada ushbu faoliyatni keng qo'llash orqali resurs tejamkorligiga erishish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardoshlikni oshirish va yuqori foyda olish imkoniyatlari yoritilib natijalar asosida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion salohiyat, innovatsion infratuzilma, innovatsion muhit, ilm-fan, texnologiya, startap, loyiha, texnopark, biznes-inkubator.

Abstract: This article explores the necessity of innovation in the modern era and analyzes the potential for innovative activities in Uzbekistan. It outlines the key components of the national economy's innovative potential, including the importance of scientific research, the personnel training system, state policies and legislation, as well as the role of innovation projects and investments. The article highlights how the widespread application of such activities can achieve resource efficiency, meet consumer demands, enhance competitiveness, and generate high profits. Based on the findings, conclusions and proposals have been developed to ensure the innovative development of the national economy, emphasizing the need for integrating science,

technology, and strategic investments into Uzbekistan's economic framework.

Key words: innovation, innovation planning, innovation infrastructure, innovation environment, science, technology, startup business, technopark, incubator.


Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida innovatsion iqtisodiyot davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, startaplar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va global bozor talablariga moslashish imkonini ham beradi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”[1]gi Qonuni qabul qilinib, bunda innovatsion faoliyatning asosiy prinsiplari, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish yo‘llari, innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va innovatsion rivojlantirish strategiyalari belgilangan.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Xususan, M.T.Tekuyeva, M.A.Volov, A.R.Volov va R.H.Kushbokova “Increase of Efficiency of Use of Innovative Capacity of the Region”[5] nomli maqolasida “Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishi samarali ishlab chiqarish o‘sishining natijalarini kengaytirish va sifat jihatidan o‘zgartirish, Rossiya innovatsion bozorining shakllanishi, risk kapitali bozorining, ayniqsa, “yuqori texnologiyalar” sohalarida dinamik rivojlanishi hamda moliya bozorlari uchun texnik

bazaning taraqqiy etishi bilan bog‘liq. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmani boshqarishning ajralmas qismi– uning holatini monitoring qilish va baholash mexanizmi, eng muhimi esa, uning samaradorligini aniqlashdir.”[5] deb tushuntirgan. Ushbu maqolada olimlar innovatsion infratuzilmani baholash bo‘yicha mavjud metodologiyalar tahlil qilinib, ayrim masalalarning noaniqligi aniqlangan. Chunki hozirda mintaqaviy innovatsion infratuzilmaning holati va samaradorligini baholash uchun universal va moslashuvchan metodologiya mavjud emas. Shu sababli, mualliflar Rossiyaning aksariyat mintaqalariga tatbiq etish mumkin bo‘lgan va infratuzilmaning rivojlanish darajasini kompleks tahlil qilishga imkon beradigan baholash usulini ishlab chiqdilar.



1-rasm. Innovatsion infratuzilmasini baholash tarkibiy qismlari

J.L.Furman, M.E.Porter va S.Stern “The determinants of national innovative capacity”[6] nomli maqolasida milliy innovatsion salohiyatga quyidagicha ta’rif beradi. “...bu mamlakatning uzoq muddatli istiqbolda innovatsion texnologiyalar oqimini ishlab chiqarish va tijoratlashtirish qobiliyatidir. Milliy innovatsion salohiyat mamlakatning umumiy innovatsion infratuzilmasi, mamlakatning sanoat klasterlarida innovatsiyalar uchun muhit o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligiga bog‘liq.”[6], deb e’tirof etgan. Olimlar milliy innovatsion salohiyat doirasi oldingi tadqiqotlarning uchta alohida yo‘nalishiga asoslanadi.

Birinchidan, milliy innovatsion salohiyat kuchli umumiy innovatsion

infratuzilmaning mavjudligiga bog‘liq.

Ikkinchidan, mamlakatning innovatsion salohiyati mamlakatning sanoat klasterlarida mavjud bo‘lgan qulay innovatsion muhitga bog‘liq.

Uchinchidan, milliy innovatsion salohiyat umumiy innovatsion infratuzilma va muayyan klasterlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamligiga bog‘liq.

Milliy innovatsion salohiyat ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lim olimlar faqat innovatsion infratuzilma, qulay muhit va mustahkam aloqa orqali baholashni tusuntirishgan. Ammo olimlar innovatsion salohiyatni siyosiy-huquqiy, moliyaviy va malakali kadrlar kabi miqdor vasifat ko‘rsatkichlarini inobatga olishmagan.

Mahalliy olimlardan Y.E.Aliyev “Innovatsion iqtisodiyot”[7] nomli o‘quv qo‘llanmasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari, innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari, O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirish oid masalalarni yoritilgan.

Olimning fikricha innovatsion salohiyatning oshishi, o‘z navbatida, innovatsion faoliyat va uning samarali tashkil etilganligiga bog‘liqdir.

A.A.Mamatov, T.T.Jo‘rayev va A.N.Erkayev “Innovatsion iqtisodiyot”[8] nomli o‘quv qo‘llanmasida Innovatsion salohiyatga quyidagicha ta’rif beradi. “Innovatsion salihiyat - iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yuqori samaraga erishish, ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘zgartirib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida yuqori texnologiyali, raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirishi mumkin bo‘lgan ilmiy-texnik salohiyatga yo‘naltirilgan tuzilmaviy unsurlar. Mamlakatning innovatsion salohiyati esa – bir tomondan, innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun muhim bo‘lgan mamlakatdagi mavjud yalpi resurslarni, ikkinchi tomondan takror ishlab chiqarish jarayonida innovatsion faoliyani tashkil etish, barcha innovatsion imkoniyatlarni turli xo‘jalik subyektlari faoliyatida iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllanishidan iborat bo‘ladi.”[8] deb e’tirod etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqoladaning tadqiqot jarayonida milliy iqtisodiyotimizning innovatsion salohiyatni tahlil qilish jarayoni bo‘yicha izlanishlarda bir qator usullardan foydalanilgan. Xususan, mavzuga oid xorijiy tajriba va adabiyotlarni monografik tahlil qilgan holda analiz va sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil kabi iqtisodiy usullar hamda taqqoslash va ilmiy abstraktsiya usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Dunyoda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy inqirozlar tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy boylikni yaratishning ta‘lim, tadqiqot va innovatsiyalarga asoslangan butunlay yangi tizim shakllanib bormoqda. Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsuloti o‘sish sur’atining 70-85% gacha texnologiya, uskunalar, kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil qilishda o‘z ifodasini topgan yangi bilimlar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda mamlakatda ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”[2]gi Qonunning 19-moddasida “Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta’lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash maqsadida ishlab chiqiladi.”, hamda ushbu qonunning 41-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg‘or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, chet ellik yetuk ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalb etish, ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarning xorijda tajriba va malaka orttirishlarini ta’minlash maqsadlarida amalga oshiriladi.”, kabi istiqbolli strategik

maqsadlar belgilngan.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”[3] Qonunda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish; innovatsion faoliyatni amalga oshirish; innovatsion infratuzilmani shakllantirish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish; jarayonlarini yaxshilash bo‘yicha huquqiy me’yorlar va “Yo‘l xaritasi” belgilangan.

Bulardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”[4]gi Farmonining 51-52-maqsadlarida mos ravishda: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish; Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish; maqsadlari belgilangan. Albatta ushbu strategik maqsadlar mamlakatimizda milliy innovatsion salohiyatni oshirishga qaratilgan. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini rivojlantitish ya’ni texnoparklar va biznes-inkubatorlar sonini ko‘paytirish orqali innovatsion loyihalar va startaplarga ega bo‘lamiz. Ushbu loyihalarni tijoratlashtirish hamda ilm-fan va ta’lim tizimlarini sifatli tashkil etish orqali mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligiga, mehnat unumdorligini oshirishga, yangi tarmoqlarni yaratishga, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga erishishimiz aniq. Chunki innovatsion loyihalarni yaratish va tijoratlashtirish uchun qulay muhit yaratish oqibatida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi yildan-yilga oshmoqda (1-jadval).

1-jadval.

Innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish [9] (mlrd. so‘m)

Yil	Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish (mlrd. so‘m)
2019	38,8

2020	41,7
2021	153,2
2022	216,7
2023	275,1
2024	302,1

1-jadvalga ko‘ra, 2019-yil va 2024-yillar oralig‘ida innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish miqdori jadallik bilan oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda 2024-yil 2019-yilgan nisbatan 7,8 koeffitsiyentga o‘sish kuzatilgan. Bundan tashqari, 2019-yil va 2024-yillar davomida tijoratlashtirilgan innovatsion ishlanmalar soni 248 tani tashkil etadi. Bunda:

- 196,2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi;
- 222,6 mlrd so‘m tijoratlashtirildi;
- 64,6 mlrd so‘m soliq tushumi;
- 2185 ta ish o‘rni yaratildi;

O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi qonunida innovatsion texnoparklar ularning faoliyati, maqsadi va vazifalari belgilab berildi. Respublikamizda so'nggi besh yilda 19 ta innovatsion infratuzilma obyektlari tashkil etildi, jumladan, 9 ta texnopark, 2 ta innovatsion markaz, 4 ta biznes-akselerator, 3 ta kovorking markazi, 1 ta innovatsion poligon[9].

Shuningdek, 2020 — 2023-yillarda respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich Yoshlar texnoparklarini tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, hozirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Toshkent, Sirdaryo, Samarqand hamda Navoiy viloyatlarida Yoshlar texnoparklari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘ziga xos salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e’tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g‘oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. Natijada mamlakatrimizda innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan mamlakatimizda 2024-yil davomida innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirayotganligini ko‘rishimiz

mumkin.

Ushbu jarayonlarni yanada rivojlantirish Respublikamizda milliy innovatsion tizimni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar:

- iqtisodiyotini resurslar va xomashyolarni tejovchi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion g‘oyalar texnologiyalar va loyihalarni yaratish yo‘nalishlari;
- innovatsiyaning nanotexnologiyalar hamda kimyo texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan milliy innovatsion ishlanmalar tizimini yaratishga yo‘naltirilgan yo‘nalish;
- zamonaviy biotexnologiyalar va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha milliy innovatsion ishlanmalar tizimini yaratish;
- aborot kommunikatsion texnologiyalar, axborotlarni yangi innovatsion tizimini yaratish bo‘yicha ishlanmalar yo‘nalishi;
- tibbiyot va farmakologiya sohasida milliy innovatsion tizimni yaratish;
- geologiya, mineralogiya, seymsologiya va mineral ma’danlar sohasi bo‘yicha ilmiy innovatsion ishlanmalar yaratish yo‘nalishi;
- fizika atom energetikasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;
- xizmat ko‘rsatish, servis sohasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;
- aniq fanlar sohasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yaratish;

Innovatsiyalarni baholash indeksi va ularning muvaffaqiyat qozonish ehtimolini (foizda) hisoblash formulasini ishlab chiqishdi. Ular ushbu ko‘rsatkichlardan har qanday mamlakatda innovatsion salohiyatni baholash mezonlari sifatida foydalanishi mumkin.

$$I = \frac{S * N * P * D}{C} = \frac{B}{C}$$

$$P = P_T * P_C * P_F$$

Bu yerda:

I – innovatsiyalarni baholash indeksi;

S – yillik maksimal sotuv hajmi;

N – mahsulotdan olinadigan sof foyda (%);

P – muvaffaqiyat ehtimoli;

D – diskont;

S – ITIlar uchun kelajak xarajatlari;

P_T– texnik ehtimollik;

P_C – tijoratdagi ehtimollik;

P_F – moliyaviy muvaffaqiyat ehtimoli.

Innovatsion salohiyat tavsifini o‘rganishda bir qator mualliflar uning shakllanish va foydalanish jihatiga ko‘proq e’tibor qaratishadi.

Yuqoridagi omillarning samarali rivojlanishi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyatni oshirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya, xalqaro hamkorlik va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion rivojlanish nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi, balki jamiyatning intellektual va ilmiy salohiyatini ham oshiradi. Rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion salohiyatni oshirish uchun ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, startap va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, iqtisodiyotni raqamlashtirish, kadrlar malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy tendensiyalar asosida olib borilishi lozim. Bu jarayonlarni yanada jadallashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat grantlarini kengaytirish hamda innovatsion startaplarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan maxsus jamg‘armalarni tashkil etish;

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida “innovatsiya” fanini o‘tilishini kengaytirish ya’ni ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etish;

Uchinchidan, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni ko‘paytirish hamda malakali kadrlarni tayyorlash;

Yuqoridagi chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

[1]. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son. https://lex.uz/uz/docs/-4910391

[2]. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” O‘RQ-576-son qonuni 29.10.2019-yil https://lex.uz/ru/docs/-4571490

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” O‘RQ-630-son qonuni 24.07.2020-yil https://lex.uz/docs/-4910391

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonining 51-52-maqsadlari https://lex.uz/uz/docs/-5841063

[5]. Marina T.Tekuyeva, Murat A.Volov, Amina R.Volova and Rita H.Kushbokova “Increase of Efficiency of Use of Innovative Capacity of the Region” Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy Vol 6 No 2 March 2015.

[6]. Jeffrey L Furman, Michael E Porter, Scott Stern “The determinants of

national innovative capacity" Volume 31, Issue 6, August 2002, Pages 899-933 [7]. Y.E.Aliyev "Innovatsion iqtisodiyot" O'quv qo'llanma TOSHKENT –2019 236 bet.

[8]. A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev va A.N.Erkayev "Innovatsion iqtisodiyot" O'quv qo'llanma TOSHKENT–2020 456 bet.

[9]. https://innovation.gov.uz/news/post-1065

[10]. https://data.egov.uz/data/6107f48d2a2e256d868e8786

[11]. https://innovation.gov.uz/opendata/post-1852

[12]. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/innovatsion-iqtisodiyot

[13].https://renessans-edu.uz/files/books/2024-01-05-05-25-04_d0f6e5b08240a37208698497799752eb.pdf

[14]. https://stat.uz/uz/

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH VA REAL IQTISODIYOT KORXONALARINI QO'LLAB QUVVATLASH YO'NALISHLARI

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqoladaxizmat ko'rsatish sohasida barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va korxonalarning o'sishi va aholi farovonligini va real iqtisodiyot korxonalarini qo'llab quvvatlash yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Korxonalar,xizmat ko'rsatish,barqaror iqtisodiyot, real sektor,samaradorlik.

Abstract: This article highlights ways to ensure sustainable economic growth in the service sector, support the growth of enterprises, improve the well-being of the population, and strengthen real economy enterprises.

Key words: Enterprises, service sector, sustainable economy, real sector, efficiency.

Kirish. Xizmat ko'rsatish sohasida real iqtisodiyot korxonalaridavlatni eng

ustuvor va muhim sohasi hisoblangan sanoat sohasini rivojlantirish asosiy vazifamiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo‘jalik jihatidan birlashishi, ya’ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o‘z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ham ishlab chiqarish korxonalar samaradorligini ta’minlash asosida xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgandir.Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan ham «iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu borada mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiya va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda bozor talabi asosida mahsulot ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini oshirish asosiy vazifalarimizdan biridur. Iqtisodiyotni real sektori korxonalarda aholi farovonligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 -yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining

841-sonli qarorning 8.4-vazifasi ya’ni “...2030 -yilning oxirigacha bo‘lgan butun muddat davomida iste’mol qilish va ishlab chiqarish tizimlarida resurslardan foydalanishning global samaradorligini asta-sekin oshirib borish hamda iste’mol va ishlab chiqarishning oqilona modellaridan foydalanishga o‘tish bo‘yicha o‘n yillik harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilganidek, iqtisodiy o‘sish atrof-muhit holatining yomonlashuvi bilan birga kechmasligiga intilish” belgilab berilgan. Bundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish resusrlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda mahsulot ishlab

chiqarish xajmi va narxini belgilash talab etiladi. Bu omillar samaradorlikni asosi hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida ma'lumki, har bir tarmoq, korxona, qolaversa, har bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida foyda olishga intiladi. Foyda ishlab chiqarish xarajatlariga va korxona daromadlariga bog'liq bo'ladi. Foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq yoki nisbat tarmoq va korxona faoliyatining samaradorligini ifodalaydi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini me'yorlashtirish va sotuv hajmini eng maqbul hajmini belgilash asosida ta'minlanadi. Real iqtisodiyot korxonalari tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab yuqori natijaga erishish zarur. Buni keng ma'noda resurs birligi sarfi asosida olingan qo'shimcha daromadlarning o'sib borishini anglatadi.Mazkur jarayon texnologiyalarning o'zgarishi, ishchilar malakasi ortishi, samarali talabni shakllantirilishi asosida ta'minlanadi.

Samaradorlik ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning barcha darajalarida aniqlanadi va turli mezonlar yordamida baholanadi. Sanoat korxonlari ishlab chiqarish samaradorligi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib kelingan. Xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlardan R.S.Kaplan va D.P.Norton korporativ boshqaruv samaradorligiga baho berib samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omil ishchi xodimlar bo'lib, bunda boshqaruv strategiyasi, boshqaruv vazifalarini belgilanishi, faol yetakchilik qobilyatiga baho bergan. Mazkur mualliflar qarashlarida ishlab chiqarish samaradorligini bir taraflama boshqaruv samaradorligi nuqtai nazaridan yondashgan. Bizning fikrimizcha korxonlarda ishlab chiqarish samaradorligi to'g'risida gap borganda bir omil emas keng ko'lamda qarash lozim. N.Ya.Morozko tomonidan "Iqtisodiy va texnologik daraja" ko'rsatkichi asosida samaradorlik o'rganilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor texnologik jarayonlar ketma-ketligini korxonalarni ishlab chiqarish samaradorligi darajasiga ta'siri va kelajakdagi o'zgarish dinamikalari baholangan. Asosiy e'tibor korxonaning sanoat rivojlanishi darajasini baholashga qaratilib, korxonalarni rivojlanish darajasi korxona faoliyatining tijorat samaradorligi va ularning

tegishli yoki boshqa tarkibiy elementlari hamda tashkilot ishlab chiqaruvchilarining mehnat unumdorligi indeksi, smenalik samaradorlik koeffitsentlari va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi bilan jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalari hisobga olingan holda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish variantlaridan biri sifatida ayni bir vaqtda iqtisodiyotni raqamlashtirish va inson kapitali sifatini oshirish yo‘li bilan boshqaruv samaradorligini va umuman iqtisodiyotni o‘stirish vazifasi qo‘yiladi. Sanoatni raqamlashtirish jarayonida robotlarini qo‘llash orqali xodimlarning xarajatlari kamayadi, doimiy yuqori sifatli mahsulot ta’minlanadi, shuningdek, ishlab chiqarish moslashuvchanligi oshadi. An’anaviy yondashuvlar bilan solishtirganda “Raqamli egizak” (digital twin) texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar loyihalashtirishdagi xatolarni kamaytirishga hamda vaqtni, moliyaviy va boshqa resurs xarajatlarni 10 va undan ko‘p baravariga qisqartirishga yordam beradi. Ishlab chiqarish jarayonlari uchun raqamli egizak texnologiyasidan foydalanish uzilishlar sonini kamaytirish, ishlamay qolishning oldini olish va korxonalar faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli egizaklarni joriy qilish orqali uskunaning ishlab chiqarish yuklamasiga chidamliligini 95% aniqlik bilan bashorat qilish, murakkab sanoat majmualarining foydalanish xarajatlarini 5-10% ga kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, sanoatni VR texnologiyalari orqali testlash ishlab chiqish vaqti va narxini optimallashtirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ranskiy K.A. Ekonomika organizatsii(predpriyatiya) Ucheb / K.A. Ranskiy. 4-e izdanie, 2003 -1012 s.

2. Fridman A.M. Ekonomika prdepriyatiy torgovli i pitaniya potrebitelskogo obщestva. Uchebnik. -M. «Dыshkov i K». 2003 -628s.

3. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2 qismda. -T “Fan va texnologiya”. 2007 -387 s.

4. Mirzaev Q., SHavqiev E., Janzakov B. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma, -T.: “Innovatsion rivojlanish matbaa uyi”, 2020 -298 b.

5. Razzoqov A., Toshmatov SH., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T.: Moliya, 2002

6. N.Tuxliev Bozorga o‘tishning mashaqqatli yo‘li. Toshkent: «O‘zbekiston»,1999. 13 b.

7. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov.«Iqtisodiyot nazariyasi», darslig Toshkent. «Zamin nashr», 2021,-,bet

8. Koval, A.G., Petsold, K. Innovatsii v roznichnoy torgovle: texnologii samoobslujivaniya kak put povьisheniya konkurentosposobnosti kompaniy. Innovatsii / A.K. Koval, K. Petsold. - 2012 - №7 - s. 78-81

9. Sallivan M., Edkok D. Marketing v roznichnoy torgovle. SPb.: «Neva», 2004. - 384 s.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari.

11.Abdukarimov B.A. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti o‘quv qo‘llanma “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T: 2013 12-

Роль и влияние современных инновационных технологий на повышение эффективности преподавания физической культуры в высшем образовании

Рустамов Дж.Э. *Самаркандского института экономики и сервиса,*
rustamovjam7@gmail.com

Аннотация: *данная статья рассматривает роль и влияние современных инновационных технологий на повышение эффективности преподавания физической культуры в высшем образовании. Она анализирует использование таких технологий, как виртуальная реальность, мобильные приложения и*

интерактивные методы обучения, в контексте улучшения образовательного процесса. В статье также обсуждаются технические проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются преподаватели и учебные заведения при внедрении инноваций, и предлагаются рекомендации для их преодоления.

Ключевые слова: *современные технологии, инновации, преподавание физической культуры, высшее образование, виртуальная реальность, мобильные приложения, интерактивные методы обучения, эффективность, технические проблемы, доступность.*

Введение:

Физическая культура играет неотъемлемую роль в высшем образовании, предоставляя студентам не только физическое здоровье, но и целый спектр преимуществ, включая улучшение когнитивных способностей, эмоциональное благополучие и социальную адаптацию. В контексте современного образования, где технологии становятся неотъемлемой частью учебного процесса, роль инновационных технологий в области преподавания физической культуры становится все более значимой.

Значение физической культуры в высшем образовании проявляется не только в формировании здорового образа жизни, но и в развитии личности студента как целостного индивида. Взаимодействие между телом и разумом является ключевым элементом успешного обучения, а инновационные технологии предоставляют новые возможности для улучшения этого взаимодействия.

Основная часть:

I. Технологические инновации в физическом образовании:

Виртуальная реальность (VR) представляет собой одну из самых захватывающих и перспективных технологий, которая находит широкое применение в различных сферах, включая образование. В области физической культуры и спорта, VR открывает новые горизонты для преподавания и обучения,

обогащая традиционные методы обучения интерактивным и погружающим опытом.

Одной из главных преимуществ использования виртуальной реальности в обучении физической культуре является возможность создания среды, в которой студенты могут погрузиться и испытать различные физические сценарии, которые могут быть трудно или опасно воссоздать в реальной жизни. Это включает в себя симуляции спортивных событий, тренировочные сценарии, различные условия погоды и многое другое, что позволяет студентам получить практический опыт без необходимости выхода на поле или площадку.

Кроме того, VR обеспечивает персонализированный подход к обучению, позволяя студентам выбирать уровень сложности и индивидуализировать программу обучения в соответствии с их потребностями и способностями. Это способствует более эффективному усвоению материала и повышает мотивацию студентов.

Виртуальная реальность также открывает новые возможности для коллективного обучения и сотрудничества. С помощью VR студенты могут участвовать в совместных тренировках и соревнованиях, даже если они физически находятся в разных местах. Это способствует развитию командной работы и социальных навыков.

Таким образом, использование виртуальной реальности в обучении физической культуре в высшем образовании имеет значительный потенциал для повышения эффективности преподавания и улучшения обучающего опыта студентов.

II. Влияние инновационных технологий на качество преподавания:

Инновационные технологии играют ключевую роль в улучшении эффективности преподавания физической культуры в высшем образовании, особенно через применение интерактивных методов обучения. Эти методы не только активизируют учебный процесс, но и значительно повышают мотивацию и

заинтересованность студентов.

Одним из основных преимуществ интерактивных методов обучения является их способность привлечь внимание студентов и сделать учебный процесс более увлекательным и интересным. Возможность взаимодействия с учебным материалом через различные технологии, такие как виртуальная реальность, мобильные приложения или интерактивные доски, создает более глубокое и запоминающееся обучающее окружение.

Кроме того, интерактивные методы обучения способствуют более активному участию студентов в учебном процессе. Они могут участвовать в игровых ситуациях, решать задачи в команде или индивидуально, что стимулирует их учебную активность и способствует более глубокому усвоению материала.

Еще одним важным аспектом интерактивных методов обучения является их способность адаптироваться к индивидуальным потребностям и способностям студентов. Путем предоставления персонализированных учебных материалов и заданий, а также возможности выбора уровня сложности или темпа обучения, технологии могут поддерживать каждого студента на его уровне и мотивировать его к достижению успеха.

Таким образом, использование интерактивных методов обучения в преподавании физической культуры в высшем образовании существенно повышает мотивацию и заинтересованность студентов, создавая благоприятные условия для их активного участия и успешного обучения.

III. Вызовы и препятствия:

Инновационные технологии привносят значительные улучшения в преподавание физической культуры в высшем образовании, однако существуют технические проблемы и вопросы доступности технологий, которые необходимо учитывать.

Первой и одной из наиболее существенных технических проблем является доступность необходимого оборудования и инфраструктуры для реализации

инновационных технологий. Не все учебные заведения обладают достаточными ресурсами для приобретения и поддержки современного оборудования, такого как виртуальная реальность или интерактивные доски. Это создает неравенство в доступе к образовательным возможностям и может ограничивать использование инноваций в преподавании.

Другой проблемой является техническая подготовка и обучение преподавателей к использованию новых технологий. Внедрение инноваций требует времени и усилий для обучения педагогического персонала, что может быть вызовом в условиях ограниченных ресурсов и времени. Недостаточная подготовка преподавателей может привести к неэффективному использованию технологий или даже к отказу от них в пользу традиционных методов обучения.

Кроме того, существуют технические проблемы, такие как сбои в работе оборудования, проблемы с интернет-соединением или программным обеспечением, которые могут препятствовать нормальному функционированию учебного процесса. Эти проблемы могут возникать как на этапе подготовки к уроку, так и во время его проведения, что требует быстрой реакции и умения решать проблемы на месте.

Таким образом, технические проблемы и вопросы доступности технологий остаются серьезными вызовами для повышения эффективности преподавания физической культуры в высшем образовании. Решение этих проблем требует комплексного подхода, который включает в себя обеспечение необходимых ресурсов, подготовку преподавателей и разработку стратегий управления техническими неполадками.

Заключение:

Внедрение современных инновационных технологий в преподавание физической культуры в высшем образовании имеет значительное влияние на повышение эффективности образовательного процесса. Основные технологические инновации, такие как виртуальная реальность, мобильные

приложения и интерактивные методы обучения, открывают новые возможности для улучшения качества обучения и достижения образовательных целей.

Использование виртуальной реальности позволяет создавать погружающие обучающие среды и симуляции, которые обогащают учебный опыт студентов и позволяют им практиковать навыки в безопасной и контролируемой среде. Мобильные приложения и онлайн-платформы обеспечивают доступ к обучающим материалам в любое время и в любом месте, что способствует гибкости и доступности обучения. Интерактивные методы обучения стимулируют активное участие студентов и индивидуализируют обучающий процесс, повышая его эффективность.

Однако, несмотря на все преимущества, существуют технические проблемы и вызовы в доступности технологий, которые могут затруднять успешную реализацию инноваций в образовательной среде. Необходимо стремиться к решению этих проблем через обеспечение доступности необходимых ресурсов, подготовку преподавателей и разработку эффективных стратегий управления техническими неполадками.

В целом, современные инновационные технологии имеют значительный потенциал для повышения качества преподавания физической культуры в высшем образовании. Их правильное использование и интеграция в учебный процесс могут значительно улучшить образовательный опыт студентов и способствовать их личностному и профессиональному развитию.

Список литературы

1. Chen, C., Looi, C. K., & Chen, W. (2017). Integrating virtual reality into the teaching of physical education. Interactive Learning Environments, 25(5), 670-682.

2. Backus, D., & McAuley, E. (2020). The role of technology in physical education and physical activity promotion. Quest, 72(4), 468-485.

3. J.E. Rustamov International Journal of Scientific Research And Education. Volume||07||Issue||03||March-2019||Pages-8114-8118||ISSN(e):2321-7545 Website: http://jsae.in

4. Абрамова, Г. С. *Педагогические технологии в системе физического воспитания студентов*. — М.: Академия, 2020.

5. Андреев, В. И. *Инновационные процессы в образовании: учебное пособие для вузов*. — Казань: Центр инновационных технологий, 2019.

6. Лях, В. И., Зданевич, А. А. *Современные педагогические технологии в физическом воспитании студентов*. — М.: Просвещение, 2021.

7. Кузнецова, З. М. *Физическая культура в высшей школе: новые подходы и технологии обучения*. — СПб.: Питер, 2020.

8. Галкина, Н. И. *Использование цифровых технологий в преподавании физической культуры*. // *Педагогика и психология образования*, 2022, №4, с. 45–52.

9. Селевко, Г. К. *Современные образовательные технологии*. — М.: Народное образование, 2018.

10. Киселёв, В. П. *Инновации в системе физического воспитания и спорта*. — М.: Советский спорт, 2021.

11. Колесникова, И. А. *Информационные технологии в образовании*. — М.: Юрайт, 2022.

12. World Health Organization. *Global Action Plan on Physical Activity 2018–2030*. — Geneva: WHO, 2018.

13. Razon, S., Sachs, M. *Applied Exercise Psychology: The Challenging Journey from Motivation to Adherence*. — Routledge, 2018.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ZARAR KO'RIB ISHLAYOTGAN VA IQTISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISH JAROYONIDA BANKLARNING AHAMIYATINI OSHIRISH.

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
Olimova Sevinch MXT-122 guruh talabasi

Annotatsiya: Xizmat ko'rsatish sohasida zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonida banklarning ahamiyatini oshirish Shu bilan birga investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina. Jalb etilgan investitsiyalar hajmi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, samaradorlik,investitsiya real sektor, korxonalar,texnalogiyalar.

Abstract: Increasing the role of banks in the process of financial rehabilitation of loss-making and economically insolvent enterprises in the service sector. At the same time, there are many problems that need to be solved in attracting investments and increasing their efficiency. The volume of attracted investments and ways to implement structural changes in the economy are highlighted.

Key words: Service delivery, efficiency, investment in the real sector, enterprises, technologies**.**

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar real iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Respublikamizda investitsiya siyosatini takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi real sektor korxonalarini rivojlantirishga va ularni texnik-texnologik yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga investitsiyalarni jalb etish va ularning

samaradorligini oshirish bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham talaygina. Jalb etilgan investitsiyalar hajmi iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun etarli bo‘lmayapti. Xorijiy investitsiyalar katta qismining bir nechta mintaqalarda to‘planib qolganligi respublikamiz mintaqalarida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan respublikamizda investitsiyalar jalb etish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni davom ettirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy jihatlari qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, xorij olimlaridan J.M.Keyns, A.Marshall, P.Samuelson, V.M.Fridman, K.R.Makkonell, A.I.Dedikov, G.Naydenov va boshqalar investitsiyalar va ularning samaradorligi to‘g‘risidagi nazariy konsepsiyalar ishlab chiqqanlar .

O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish masalalari S.S.G‘ulomov, A.V.Vaxabov, D.G‘ozibekov, N.X.Xaydarov, Sh.G.Yuldoshev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.Bu ishlarda asosan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirishning nazariy jihatlari, bu jarayondagi moliyaviy-soliq munosabatlari yoritilgan. O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solish masalalari Sh.B.Imomovning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. D.D.Rustamova, S.S.Nasretdinov, N.N.Oblamurodovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyotni moderinizatsiyalashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari tadqiq qilingan shu bilan birga iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. **3.2.1-jadval**

2018-2022 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik

yangilash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi

Investitsiyalarning yunalishi	Loyihalarning umumiy qiymati	O‘z mablag‘lari	Tiklanish va taqqiyot jamg‘armasi	Tijorat banklari kreditlari
Yangi qurilish	15395	2795	468	12132
Modernizasiya va tiklash	6419	2922	1051	2446
Boshqa yo‘nalishlar	1160	101	1519	1059
Jami	22974	5818	1519	1059
Ishlab chiqarish bosqichidagi yangi innovatsiya loyihalari				
Yangi qurilish	9850	2624	942	9014
Modernizasiya va tiklash	2409	936	182	1292
Boshqa yo‘nalishlar	256	-	-	256
Jami	12245	3560	1124	7561

2018 – 2024 yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan investitsion loyihalarning 8,6% neft va gaz tarmog‘i, 25,7% transport va infratuzilma, 10,6% energetika sohasi, 9,3%, kimyo sanoati, 6,4% i tog‘-kon va metallurgiya sanoati, 4,7% mashinasozlik sohasi, 6,3% i qurilish mollari ishlab chiqarish 5,1% engil sanoat, 1,4% i «Navoiy» erkin industrial iqtisodiy zonasi va 4,9% boshqa tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Ushbu holat iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalarning asosiy fondlarni zamonaviylashtirishga, tubdan yangilashga sarflash va samaradorligini oshirish imkonini berdi. Demak, mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi barqaror va mutanosib iqtisodiy

o‘sishni ta’minlash, milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish hamda jadal taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning muntazam ravishda kengaytirib borilishi, uzoq muddatli investitsiyaviy qarzlarning va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi O‘zbekistondagi Inqirozga qarshi choralar dasturida etakchi o‘rin tutadi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari aholi mablag‘lari va Tiklanish va taraqqiyot mablag‘lari hisobiga 2010 yilda jami investitsion mablag‘larning

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sattarova.N.T. O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. - T. FAN BULOGI. 2022.yil

2. Normurodov U.N. O‘zbekistonda savdo servisining holati va uni rivojlantirish istiqbollari // “Iqtisodiyot va xalqimiz hayot sifatini yuksaltirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.– Samarqand. - 2015, b. 96-99.

3. Sattarova N.T. “O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishningilmiy metodologik asoslari” Logistika va iqtisodiyot ilmiy elektron jurnal VI SON. 2021

4. Sattarova.N.T. Mirzaev.Q.J. “THE FACTORS AFFECTING TRADE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN”Philosophical Readings XIII.4 (2021),pp. 2111-2117. 2111Info@philosophicalreadings.org10.5281/zenodo.5599778

5. Q.J.Mirzayev,G.S.Mustafayev,N.T.Sattarova “Biznes va tadbirkorlik asoslari”o‘quv qo‘llanma.T-Fan bulogi.Samarqand 2022

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA REAL IQTISODIYOT KORXONALARI SAMARADORLIGINI TAHLIL ETISH VA BAHOLASH USLUBIYATLARI.

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
SALOXITDINOVA MUATTAR BAXTIYOROVNA
SamISI MXT-122 guruh talabasi

Annotatsiya: Xizmat ko'rsatish sohasida real iqtisodiyot korxonalari samaradorligini tahlil etish va baholash Real iqtisodiyot korxonalari Moliyaviy barqarorlikning nazariy jihatlari dissertatsiyaning birinchi bobida keng yoritilib, korxonalarning moliyaviy xolatini taxlil qilish va uning moliyaviy barqarorligini baxolash mutlaq va nisbiy ko'rsatgichlar bo'yicha ilmiy asoslangan xolda taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, moliyaviy, samaradorlik, korxonalar, real iqtisodiyot, korxonalar.

Abstract: Analysis and assessment of the efficiency of real economy enterprises in the service sector. The theoretical aspects of financial stability of real economy enterprises are extensively covered in the first chapter of the dissertation, and a scientifically based analysis of the financial condition of enterprises and assessment of their financial stability are proposed in terms of absolute and relative indicators.

Key words: Service, financial, efficiency, enterprises, real economy, businesses.

Kirish. Xizmat ko'rsatish sohasida real iqtisodiyot korxonalari Moliyaviy barqarorlikning nazariy jihatlari dissertatsiyaning birinchi bobida keng yoritilib, korxonalarning moliyaviy xolatini taxlil qilish va uning moliyaviy barqarorligini baxolash mutlaq va nisbiy ko'rsatgichlar bo'yicha ilmiy asoslangan Ushbu taklif etilgan ko'satkichlarga asoslangan xolda «Kvars» AJ va «Bekobodsement» OAJ korxonalari moliyaviy barqarorligi darajasini taxlil qilamiz. Real iqtisodiyot korxonalari moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan korxona ixtiyorida qanaqa va qancha mablag' mavjudligi xamda ular korxonaning qaysi yunalishiga kiritilganligiga bog'liq. Foydalanilayotgan sarmoya yunalish mavkeiga qarab o'z va qarz mablag'lariga ajratiladi.


Korxonaning o'z mablag'lari o'zini-o'zi moliyalash talablari zaruriyati bilan

izohlanadi xamda u korxona mustaqilligi asosi xisoblanadi. Biroq, shuni inobatga olish kerakki, korxona faoliyatini moliyalash o‘z mablag‘‘lari xisobiga amalga oshirish xar doim xam foydali xisoblanmaydi va bu asosan mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarishda o‘z aksini topadi. Bunda ayrim vaqtda bank xisob raqamlarida katta xajmda mablag‘lar yig‘ilib qoladi va aksincha, boshqa vaqtda mablag‘larni topib bo‘lmaydi. Bundan tashqari shunga e’tibor qaratish kerakki, agar moliyaviy resurslar narxi yuqori bo‘lmasa, korxona kredit resurslari uchun to‘lashga nisbatan kiritilgan mablag‘dan yuqori natijaga erishishini ta’minlashi va qarz mablag‘larini jalb qilish esa o‘z mablag‘lar (aksiyadorlar) rentabelligi oshishiga olib kelishi mumkin. Ayni damda, korxona mablag‘lari asosan qisqa muddatli majburiyatlar xisobiga shakllangan bo‘lsa, unda korxona moliyaviy xolati beqaror bo‘ladi. Ya’ni, qisqa muddatli sarmoyalardan foydalanishda uzoq muddatli oborotga jalb qilmaslik va uni o‘z vaqtida qaytarishni nazorat qilishga yo‘naltirilgan doimiy tezkor ishlashni talab etadi. Demak, korxonaning moliyaviy xolati o‘z va qarz mablag‘larning optimal muvozanatiga bevosita bog‘lik. Moliyaviy strategiyani tug‘ri shakllantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Korxonalar moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan korxona ixtiyorida qanaqa va qancha mablag‘ mavjudligi xamda ular korxonaning qaysi yo‘nalishiga kiritilganligiga bog‘liq. Foydalanilayotgan sarmoya yo‘nalish mavqeiga qarab o‘z va qarz mablag‘lariga ajratiladi.

Korxonaning o‘z mablag‘lari o‘zini- o‘zi moliyalash talablari zaruriyati bilan izoxlanadi xamda u korxona mustaqilligi asosi xisoblanadi. Biroq, shuni inobatga olish kerakki, korxona faoliyatini moliyalash o‘z mablag‘lari xisobiga amalga oshirish xar doim ham foydali xisoblanmaydi va bu asosan mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarishda o‘z aksini topadi. Bunda ayrim vaqtda bank xisob raqamlarida katta xajmda mablag‘lar yig‘ilib qoladi va aksincha, boshqa vaqtda mablag‘larni topib bo‘lmaydi. Bundan tashqari shunga e’tibor qaratish kerakki, agar moliyaviy resurslar narxi yuqori bo‘lmasa, korxona kredit resurslari uchun to‘lashga nisbatan kiritilgan mablag‘dan yuqori natijaga erishishini ta’minlashi va qarz mablag‘larini jalb qilish esa o‘z

mablag‘lar (aksiyadorlar) rentabelligi oshishiga olib kelishi mumkin.

Ayni damda, korxona mablag‘lari asosan qisqa muddatli majburiyatlar xisobiga shakllangan bo‘lsa, unda korxona moliyaviy xolati beqaror bo‘ladi. Ya’ni, qisqa muddatli sarmoyalardan foydalanishda uzoq muddatli oborotga jalb qilmaslik va uni o‘z vaqtida qaytarishni nazoratqkilishga yo‘naltirilgan doimiy tezkor ishlashni talab etadi. Demak, korxonaning moliyaviy holati o‘z va qarz mablag‘larning optimal muvozanatiga bevosita bog‘lik. Moliyaviy strategiyani tug‘ri shakllantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Etilmaganligini belgilasa, ikkinchidan ta’minotchilar (ish va xizmatlar) tomonidan e’tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin.Korxonalar moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan korxona ixtiyorida qanaqa va qancha mablag‘ mavjudligi hamda ular korxonaning qaysi yo‘nalishiga kiritilganligiga bog‘liq. Foydalanilayotgan sarmoya yo‘nalish mavqeiga qarab o‘z va qarz mablag‘lariga ajratiladi.



1.1 - rasm. Ajratish imkonini beruvchi ko‘p pog‘onali usul

tegishlicha xisoblanishi kerak. Shuning uchun ishlab chiqarilgan va xaridorlarga yuklangan tovarlar uchun shakllangan qo‘shilgan qiymat va foyda o‘zaro farq qiladi. Shuningdek, unda likvidlilik, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsientlarining dinamikasini belgilash, ya’ni korxonaning muayyan vaqtdagi moliyaviy xolatini baxolash mumkin.Ikkinchi omil - korxonaning moliyaviy xolatini belgilash.Korxonaning moliyaviy faoliyatini taxlil qilishda pulning davriy qiymati dinamikasidan olinadigan iqtisodiy foyda (zarar) baxolanishi lozim.Agar korxona aktivining tarkibida debitorlik qarzlari mavjud bo‘lsa, u xolda uning real qiymati sarmoyaning muqobil qiymati miqdoriga kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. –T.: 2000.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil 30 dekabr. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 10 may. – T.: 2019. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 24 iyul. – T.: 2020. [Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: https://lex.uz.

